

**MUQIMIY SAYOHATNOMASIDA TASVIRLANGAN IJTIMOIIY - SIYOSIIY  
HOLAT***Safarova E'zoza**Eshmamatova Rohila**Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabalari*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Muqimiy “Sayohatnoma” asarining janr xususiyatlari va obrazlari, asarda davr, muhit va voqelik tasviri, Qo‘qon adabiy muhitida siyosiy hayotning badiiy tasviri, ijtimoiy tiplarning holati, talqinlari haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Muqimiy, “Sayohatnoma”, Qo‘qon adabiy muhiti, o‘zbek adabiyoti, ijtimoiy -siyosiy vaziyat

Xalqimizning ijtimoiy-falsafiy tafakkuri, madaniy-adabiy taraqqiyotimiz tarixida beqiyos rol o‘ynagan ulug‘ siymolar nomi va sha’ni o‘zining haqiqiy qadr-qimmatini topmoqda. Markaziy Osiyoda mashhur Mavlono Muqimiy tarix sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tib kelayotgan, abadiyatga daxldor ana shunday namoyandalardan biridir.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan Muqimiy, Furqat, Zavqiy singari qalam sohibalari o‘zlarining ko‘ngil kechinmalari, rangin tuyg‘ulari hamda ijtimoiy hayotga munosabatlarini badiiy ifodalashda o‘ziga xos mahorat maktabi yaratganlar. Shuning uchun ham madaniy merosimizni, uning ulug‘ siymolarining hayot va ijod yo‘llarini ham ilmiy ham badiiy talqin etish bugungi kunimizning muhim vazifalaridan biridir. Endilikda o‘zbek adabiyoti tarixi yangilanayotgan badiiy tafakkur talablari asosida qayta idrok etilmoqda, o‘tmishda yaratilgan asarlarning asl mohiyatini ochishga harakat qilinmoqda. Adabiyotshunoslik istiqlolgacha bo‘lgan davrlarda badiiy asarlarni asosan ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazaridan tekshirishga moslashgan bo‘lsa, endi o‘sha qoliplarni tark etib, badiiy matnga estetik talablar asosida yondashishga, har qanday xulosani matnning o‘zidan keltirib chiqarishga harakat qilmoqda. Natijada ko‘plab mumtoz adabiyot namunalarining asl badiiy qiymati, bir qator adiblarning millat estetik tafakkuri taraqqiyotidagi tarixiy o‘rni xolisona belgilanadi.

Muqimiy she’rlarining tili sodda, uslubi ravon, fors-arab so‘zlari nihoyatda oz, jonli tilga yaqin. Bu esa shoirning o‘zbek adabiy tilining rivojlanishi va taraqqiy etishiga qo‘shgan hissasi deyish mumkin. Muqimiyning umri iqtisodiy qiyinchiliklar, turli voqea-hodisalar girdobida notinch o‘tdi. Ammo ilm-ma’rifatga, ijod va yaratuvchilik faoliyatiga hamisha vaqt topa olganligi, boshqalarni ham bu yo‘lga muttasil targ‘ib qilganligi tahsinga loyiqdir. Buning ustiga yaraqon, sariq kasalligiga,

quloq og‘rigiga chalinganidan, tabiblar unga havo almashtirishni maslahat bergach, o‘g‘lini singillariga topshirib, topgan ozgina puliga Isfara, Konibodom, Toshkentning bahavo joylariga sayohat qildi. Aynan ana shu sayohatida u o‘zbek she‘riyatida mashhur bo‘lgan.

Sayohatnoma- sayohat taassurotlari va tafsilotlarini tasvir etuvchi badiiy asar. Sayohatnomalarning tarixiy- badiiy qimmatini muallif maqsadi, uslubi va mahoratiga bog‘liq. Adabiyot tarixida sayohat taassurotlarining nasriy va she‘riy tasviridan iborat o‘nlab asarlar mavjud. Nasriy sayohatnomalarda joy va voqealarning izchil tafsiloti yetakchi o‘rin tutsa, she‘riy sayohatnomalarda tasvir ixcham va umumlashma harakterda bo‘ladi. Ularning ichki tuzilishi quyidagicha:

1. Kirish, ya‘ni sayohatga chiqish ehtiyoji, sabablari aytiladi;
2. Yo‘l xotiralari batafsil bayon etiladi.
3. Sayohatlardan muayyan xulosalar chiqariladi.

Muqimiyning “Sayohatnomasi” murabba shaklida yozilgan. Muqimiy turli shahar va qishloqlarga sayohat qilar ekan, o‘z taassurotlarini asosida yozgan bu asarini to‘rt qisimga ajratadi. Asosan, adib do‘stlarining maslahatiga ko‘ra Farg‘ona vodiysiga ko‘proq sayohat qilgan va bizgacha uning Qo‘qondan Shohimardonga, Qo‘qondan Farg‘onaga, Qo‘qondan Isfaraga qilgan sayohatlari tasviri yetib kelgan. Muqimiyning bu yozgan asari oddiygina bir sayohat taassuroti emas, balki o‘sha davrdagi hududning tuzilishi, holati va u yerda yashovchi aholining ahvoli, faryodlarini tarzda qalam bilan tasvirga olgan. Avvalo, asarni boshlashida sayohat qilishining sabablarini keltirib o‘tgan hamda turmushida yuz bergan muammolarni va hayotdan charchagan insonga ba‘zida sayohat qilish kerakligini takidlash bilan boshlangan. Shoir sayohatnomalari muallifning zamondan, turmushdan shikoyat satrlari bilan boshlanadi. Muqimiy o‘zining sayohatga chiqish sababini bayon etadi. Bu bayon turmush muammolaridan charchagan va birpas bo‘lsa ham horigan ko‘ngilga taskin berishni orzu qilgan majruh qalbning nola-yu faryodidan iborat. Biz ham ushbu asarni o‘qir ekanmiz bunga yanada ishonch hosil qilamiz.

Muqimiyning bu asaridagi Qo‘qondan Shohimardonga qismiga qilgan sayohatlaridagi joylarning ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy holati to‘laqonli aks ettirilgan. Uning dastlabki borgan joyi “O‘ltarma” degan qishloq edi va u yerda adib bozordagi holatni va 500 tacha ayolni voizning gapini tinglayotgani hamda bu yerdagi mingboshi o‘ta adolatsiz va xasis insonligini ta‘kidlaydi. Adib o‘z asarida barcha voqealarni haqqoniylik bilan boricha ko‘rsatib beradi .

O‘ltarmadan so‘ng qaroqchilar makoni bo‘lmish “Do‘rmanchaga” borganini va barcha aholi u yerdagi holatdan norozi ekanligini tavirlab o‘tgan.

“Do‘rmancha”ga ketdim o‘tub  
Yoqamni har soat tutib  
Yotdum ul oqshom g‘am yutub

Dashti qaroqchizor ekan.

So'nggi manzillari jannat misoli tasvirlangan "Roshidon", mingboshilari o'ta ayyor bo'lgan "Oltiariq", bog'i tutzor "Chimyon" degan joylarga sayohat qilganligini aytib o'tadi.

Muqimiy "Sayohatnomalari" yo'nalishlar nomidan kelib chiqib, uch xil nomlansa-da, aslida ular yaxlit bir asardir. Chunki ularning g'oyaviy maqsadi bir xil bo'lib, ularning hammasida muallif yagona niyatni- turmush va voqelikdagi kuzatishlarni bayon etishni nazarda tutadi.

Asardagi yana bir muhim xususiyat shuki, shoir real hayot lavhalarni ko'rar ekan, mushohada etar ekan, chuqur umumlashmalar qiladi. Ochko'z va zolim amaldorlar, noinmsof va ziqna boylarni, xarob bo'lgan qishloqlarni ko'rar ekan, bunday hayot odamlar uchunqirilgan dor, jallod kundasidir, degan xulosaga keladi ("Olamni tahqiq ayladim - Dunyo qurilgan dor ekan").

Yetim haqi go'shti baliq

Qilmishlari nayrang ekan.

"Sayohatnoma" dan o'rin olgan tabiat tasviri ham kitobxonlarda chuqur badiiy-estetik zavq uyg'otadi. Chunki, sayohatdan asl maqsad ham nafaq jamiyat hayotiga, balki tabiat go'zalliklaridan bahra olishni ham anglatadi. Adabiyotshunoslikda peyzaj deb nomlanuvchi tabiat manzaralari tasvir ibadiiy adabiyotning tarkibiy qismi sanaladi.

"Vodil" maqomi dilfuzo

Ko'chalaridur dilkusho

Anhorida obi safo

Sebarga obishor ekan.

Muqimiyning "Sayohatnomasi" dan keyin bir qancha zamondosh bo'lgan Zavqiy, Furqat, Tajalliy kabi shoirlar o'z sayohatnomalarini yaratishgan. Oybekning "Pokiston taassurotlari" asarida sayohatnoma mavzusining kengayganligi, bayon va tasvir shakllarining o'ziga xosligi ko'zga tashlanadi. Ushbu "Sayohatnoma" asarida o'sha davrning ko'plab ijtimoiy -siyosiy holatlari yaqqol ochib beriladi. Biz maqolamizda ushbu o'rinlarning ba'zilariga to'xtalib o'tdik xolos.

Xulosa qilib aytganda, Muqimiy ijodini eslaganimizda albatta birinchi o'rinda "Sayohatnoma" yodimizga keladi. Bunga sabab yuqorida ta'kidlaganimizdek shoir asarining sodda tilda, ixcham, ravon uslubda yozilganligi hamda o'sha davr muhitini yaqqol ochib bera olganida deb hisoblaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muqimiy. Asarlari. T. G'afur G'ulom. 1974.
2. Muqimiy she'riyati matnida "g'oyaviy tahlil" masalasi // Oltin bitiklar. - Toshkent, 2018. No 1. - B. 88-97.
3. Maxmudov N.M, Avazov N.R, "Muqimiyning iqtisodiy qarashlari". Ilmiy risola- T. "Iqtisodiyot", 2021, - 56 b.



4. 5-sinf adabiyot darsligi , Ahmedov S, Qosimov B, Qo‘chqorov R, Rizayev Sh.  
Toshkent . "Sharq" , 2020, - 272 b .

